



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN:

«O'ZBEKISTONNING YANGI TARIXI»

MAVZU

5

**Mustaqillikka erishish arafasida
O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar**



Reja: Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar



1. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat
2. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi" "O'zbek ishi" nomli kampaniyalar
3. 1989 yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi.
4. I.Karimov – O'zbekistonning Birinchi Prezidenti. Mustaqillik deklarasiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1991 yil avgust voqealari.



XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holatlar

1980-yillarning boshlarida sovet siyosiy tizimi, xo'jalik yuritish usuli o'zining rivojlanish imkoniyatlarini batamom tugatdi.

Ma'muriy-siyosiy biqqlik kuchaydi, jamiyat a'zolari mehnat intizomi pasaydi, loqaydlik, befarqlik kuchaydi.

80-yillar o'rtalarida sovet jamiyatida "qayta qurish" boshlandi. Qayta qurish haqida M. S. Gorbachev KPSS MK ning aprel (1985 yil) plenumida taklif kiritdi.

XX asr 80-yillari o'rtalarida Respublika ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holatlar

80-yillarning o'rtalarida SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi ro'y bera boshladi. Qayta qurish kontsepsiyasi cheklangan bo'lib, u SSSRni taraqqiyotini ta'minlay olmas edi



Qayta qurish yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot yomonlashdi. Respublikada milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar toptaldi, buning oqibatida xalq orasida loqaydlik, ishonchsizlik va norozilik kuchaydi.

Farg'ona fojeasi yuz berdi. Milliy o'zlikni anglash boshlandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi, paxta yakkahokimligini tugatilishi, ekologik holatni sog'lomlashtirishni O'zbekistonda dolzarb masala sifatida ko'tarildi.

O'zbekistonda og'ir axvolning vujudga kelish sabablari

1

- Iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga zo'r berilib, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga yaroqsiz yondoshuvlarning tobora kuchayib borishi;

2

- Respublika sobiq Markazdagi sanoat vazirliklari va idoralarining mo'may xom asgyo manbai sifatida qarab kelinishi;

3

- O'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan yetarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmagani, ba'zan esa bu xususiyatlarning pisand ham qilinmagani;

4

- Iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekistonning mavqei va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmagani.

Qayta qurishning 1-bosqichi (1985-1987-yillar)

1

- Ma'muriy-tashkiliy tadbirlar avvalgidek buyruqbozlik asosida olib borildi

2

- Bu bosqichdagi vazifa – ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asnosida inson omilini faollashtirish edi

3

- Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratildi

4

- 1986 yildan mamlakat iqtisodiy ahvoli yomonlashdi, 1987 yil yanvaridan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaydi. 1 - bosqich mag'lub bo'ldi



Qayta qurishning 2-bosqichi (1987-1990-yillar)

1

- Jamiyating barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishga harakatlar bo'ldi. Asosiy maqsad sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirish deb aytiladi

2

- 80-yillar 2-yarmida iqtisodiy inqiroz boshlandi. Markaz o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida O'zbekistonda "O'zbek ishi", "paxta ishi" kabi uydirmalarni o'ylab topdi

3

- Qayta qurish siyosati ham SSSR davlatini muqarrar inqirozdan qutqarib qola olmadi. Davlatda inqiroz boshlandi. Ittifoqdosh Respublikalarda milliy o'zlikni anglash va mustaqillik sari dadil qadamlar qo'yildi



"Paxta ishi" "O'zbek ishi" nomli kampaniyalar

"Paxta ishi" deb nomlangan qatag'onga milliy tus berilib, u "o'zbeklar ishi"ga aylantirildi va ziyolilar ham ta'qib ostiga olindi. O'zbekiston KP MQning 1984 yildagi XVI plenumi Markazning "sog'lomlashtirish" borasidagi tadbirlarini quvvatlagan holda, Respublikada yuzaga kelgan salbiy vaziyatda partiya ko'rsatmalariga to'la amal qilmagani uchun ziyolilarni ham aybladi. Ulardan Sovet turmush tarzini ulug'lovchi asarlar talab etilib, ijodiy uyushmalar faoliyati qattiq mafkuraviy nazoratga olindi.



O'zbekistonda "O'zbeklar ishi" deb nomlangan qatag'onning boshlanishi


1983 yil sentyabrda SSSR Bosh prokurori A.Rekunkov topshirig'iga ko'ra, SSSR Prokuraturasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligida malakatning turli mintaqalaridan to'plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuzilib, O'zbekistonda faoliyat boshlaydi.

Markazdan Respublikamizga yuborilgan tekshiruvchilar esa mahalliy shart – sharoitni hisobga olmay, o'zbek xalqining milliy manfaatlari, madaniyati, qadr – qimmatini paymol etadi.

O'zbekiston SSR KP MQ, Respublika Ministrlar Soveti, O'zbekiston SSR Jliy Soveti, O'zbekiston SSR Prokuraturasi, O'zbekiston SSR IIB kabi muhim boshqaruv bo'g'nlari shunday kadrlarning qo'lga o'tadi. Ular Respublikadagi ijtimoiy – siyosiy vaziyatni yanada keskinlashtirib yuboradi.

Natijada, "O'zbekiston tergov usullari o'tkaziladigan "maydon"ga aylanib qoladi.





1989 yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi.

80 yillar o'rtalaridan vaziyat o'zgardi. A.Qodiriy, Cho'pon, Fitrat, Usmon Nosir, M.Sayxzodalarning millarchilik, panislomizm va panturkizmda ayblanib, qatag'on qilinganliklari ochib tashlandi

30-40 yillar va 50-yillar boshlarida siyosiy qatag'on qilinib qatl etilgan va qamoqlarga tashlangan xalqimizning asl farzandlari oqlandi. «Chig'atoy gurungi», «Milliy ittihad», «Milliy istiqlol», «Botir gapchilar» singari «aksilinqilobiy guruhlar» vakillari oqlandi

1937 -1939 yillarda qamoqqa olinib otib tashlangan 6920 ta ziyolining qatag'n qismati o'rganildi

Akademik Erkin Yusupovning (1928-2003) publisistik maqolalarida markaz o'yinlari ochib berildi

O'zbekistonda 1989 yilning ikkinchi yarmidan boshlangan o'zgarishlar Gdlyan guruhiga nisbatan munosabatlarni ham keskin o'zgartirib yubordi.

"Paxta ishi" bilan bog'liq bo'lgan qonunbuzarliklarni fosh etish, begunoh kishilarni oqlashda

O'zbekistonning yangi rahbari Islom Karimov boshchiligida keng ko'lamlı ishlar boshlandi. Bu ishlar markazdan hech qanday ruxsat so'ramasdan mustaqil tarzda olib borildi. Shunday murakkab sharoitda ittifoqdosh respublikalar ichida birinchi bo'lib respublika Bosh prokurori Prezident Islom Karimovning tavsiyasiga ko'ra tayinlandi.

Yurtboshimiz Bosh prokuror oldiga respublikamiz manfaatlarini himoya qilish, birinchi navbatda, "paxta ishi" bo'yicha nohaq qamalagan fuqarolarning haq-huquqini tiklash masalasini qo'ydi.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi 1989 yil 12 sentyabrda "paxtachilikda qo'shib yozishga yo'l qo'ygani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan kishilarni avf etish maqsadida hujjatlar tayyorlaydigan komissiya" tashkil etdi. Bu komissiya tergov hujjatlarini O'zbekistonga qaytarib, minglab ishlarni qayta o'rgandi. O'zoq davom etgan mashaqqatli kurash natijasida, 2940 kishining haq-huquqi qayta tiklandi, 1015 kishi asossiz sudlangani aniqlandi. Noqonuniy ravishda hibsga olingan vatandoshlarimiz ozodlikka chiqdi.




O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining shakllanishi



1990 yil 23 martda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi

1990 yil 24 martda 12 chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1-sessiyasi Respublika Kompartiyasi 1- kotibi bo'lgan I.A.Karimovni O'zbekiston SSRning 1-Prezidenti etib sayladi





Mustaqillik sari qo'yilgan eng muhim siyosiy, huquqiy qadamlardan biri – bu 1990 yil 20 iyundagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan Mustaqillik deklarasiyasining qabul qilinishi bo'ldi. Deklarasiyada shunday deyiladi: O'zbekiston Sovet socialistik Respublikasi Oliy Soveti:

- o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari,
 - har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi,
 - har bir kishining farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb bilgan holda,
 - O'zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda,
 - xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya printsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet socialistik Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qiladi".

1991 yil avgust voqealari.



1991 yil 18 avgustda sobiq ittifoqda avqulodda xolat e'lon qilindi. Moskva va boshqa bir necha yirik shaharlariga qo'shinlar, shu jumladan tanklar kiritildi

21 avgustda fitnachilar mag'lubiyatga uchradi, 22 avgustda esa Favqulodda xolat davlat qo'mitasi (GKCHP) a'zolari qamoqqa olindi.. Mazkur holat KPSSning 1991 yil yozidagi umri tugaganidan dalolat beruvchi ramziy xolat edi.

O'zbekiston o'z nuqtai azarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati markazdan beriladigan qonunga xilof bo'lgan har kanday ko'rsatmalarni bajarishni man etdi. 20 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston SSR Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma Majlisi bo'ldi. Unda fitna munosabati bilan vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinib, O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida bayonot qabul qilindi.

FOYDANILDAN ADABIYOTLAR:

1. Муртазаева P.X. Ba boshqalar. O`zbekiston tarixi. O`quv qo`llanma. . –T.:Akademiya 2010.
2. Oblomurodov N., va boshqalar. O`zbekiston tarixi. O`quv qo`llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
7. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil. 26 yanvar**



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



XAKIMOVA MAHRIYA
ABDULHAYOVNA



"Gumanitar fanlar" kafedrası
katta o'qituvchisi



+ 998 90 373 98 08



mahruya68@gmail.com